O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

«SHARQSHUNOSLIK SOHALARINI TADQIQ ETISHNING DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDA YOSH SHARQSHUNOSLARNING AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV NOMIDAGI XIX RESPUBLIKA ILMIY–AMALIY KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI

«FAN»
Toshkent – 2024

UO‘K 314.151(575)(08)
KBK 607(543)
Y 83

«Sharqshunoslik sohalarini tadqiq etishning dolzarb masalalari» mavzusida Yosh sharqshunoslarning akademik Ubaydulla Karimov nomidagi XIX respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2024. – 286 b.

Taqrizchilar:
O‘ktambek Sultonov – tarix fanlari doktori, professor.
Sherali Qo‘ldoshev **–** tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Tahrir guruhi:
Laziz To‘rayev – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Akbar Idiyev, Maftuna Mirzayeva, Sherzod Karimov, Dostonjon Tojiyev, Farrux Kamoliddinov.

Ushbu to‘plamda qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan sharqshunoslik sohasidagi dolzarb masalalar, tarix fani oldida turgan muammolar va ularning yechimlari, tarixshunoslikka oid tadqiqotlar, til, adabiyot hamda manbashunoslik masalalari, Sharq rennesansi davri allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi, qadimiy yozma manbalarning muomalaga kiritilishi kabi masalalarga qaratilgan tadqiqotlar o‘rin olgan. To‘plam sharqshunoslar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 3-maydagi 5-sonli majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

© Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.
© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.
© «Fan» nashriyoti, 2024.

ISBN 978-9910-9030-5-2

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDAGI HAMKORLIK: ILMIY-MADANIY HAMDA SIYOSIY SOHALAR MISOLIDA

TOJIYEV Dostonjon Beknazar o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0009-1614-802X

COOPERATION WITHIN THE ORGANIZATION OF TURKIC STATES: AS AN EXAMPLE OF SCIENTIFIC-CULTURAL AND POLITICAL AREAS

TOJIEV Dostonjon
Al-Biruni Institute of Oriental Studies of
Uzbekistan Academy of Scinces,
Doctoral student
ORCID: 0009-0009-1614-802X

Abstract. *This article is formed on the basis of analytical opinions about the development of the Organization of Turkic States, which was formed and developed during the first quarter of the 21st century and is increasingly becoming a large international organization, Uzbekistan’s significant participation in the organization, and issues of cooperation in the scientific and cultural sphere. In the context of globalization, the history of the organization of Turkic states and the future perspective of the activities of all member states, which require a detailed study, comparison, comparative and analytical approach at the local and foreign levels, as one of today's current topics, are described in the article.*

Turkiy davlatlar tashkiloti turkiy tilli mamlakatlar – Turkiya, Ozarbayjon, Markaziy Osiyo davlatlari va Vengriya (tarixan turkiylik ildiziga ega ekanini ta’kidlaydi) orasidagi hamkorlik va o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan xalqaro tashkilotdir. Ushbu tashkilotning asosiy maqsadi: o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy va boshqa qator sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish hamda mazkur yo‘nalishlardagi muammolar yuzasidan muzokaralar olib borishdir.

Turkiy davlatlar tashkilotining asosiy xususiyatlari o‘zaro ittifoq, o‘zaro ishonch, qonunlarni muhofaza qilish, iqtisodiy rivojlanish va inson huquqlarini himoya etishdir. Ushbu tashkilot XX asrning so‘nggi dekadasi va XXI asrning dastlabki choragida hamkorlik kengashidan xalqaro tashkilot maqomiga erishishga qadar bo‘lgan katta yo‘lni bosib o‘tdi.

Turkiy davlatlar tashkiloti xalqaro tashkilotlar va davlatlar orasidagi diplomatik munosabatlarni rivojlantirish, xalqaro maydonda davom etayotgan muammoli masalalarga yechim taklif qilish va dunyoning barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu tashkilot turkiy dunyoda

mamlakatlarning o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, turli sohalar bilan bog‘liq muammolarni yechish uchun o‘zaro ishonch va hamkorlik rivojini taklif etadi.

Mintaqaviy jihatdan Turkiy davlatlar tashkiloti Markaziy Osiyo (hozircha Tojikiston boshqa til oilasiga mansublik sababidan bu integratsiyasidan chetda qolmoqda), Turkiya, Kavkaz (faqat Ozarbayjon) va Sharqiy Yevropa (faqat Vengriya) mintaqalarini o‘z ichiga oladi hamda u yerlarda yashayotgan xalqlar o‘rtasida do‘stlik, hamjihatlik va iqtisodiy aloqalar o‘rnatishni maqsad qilgan.

Bugungi globallashgan davrda Turkiy davlatlar tashkiloti asosan o‘z a’zolari orasida ilmiy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda. Bunda, turli sohalar bo‘yicha ilmiy, san’at va madaniy loyihalar tashkil etilishi, ma’lumot almashish va ta’lim-tarbiya sohasiga doir hamkorlikni kengaytirish kabi amaliy ko‘rsatkichlar ham mavjud.

Tarixan olib qaraganda, Turkiy Kengash 1991-yilda sobiq Sovet Ittifoqi parchalanishi natijasida forum sifatida “Turkiy tilli davlatlar rahbarlari” uchrashuvlari jarayoni orqali vujudga kelib, turkiyzabon davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni eng yuqori darajada rivojlantirishni maqsad qilgan sammitlar 1992-2010 yillar orasida davom etdi va 10 marotaba sammitlar o‘tkazildi. Ushbu tashkilotga asos solinishidan avval, 1992-yilda Qozog‘istonning o‘sha paytda poytaxti bo‘lgan Almati shahrida “Birlashgan turkiylar tili va san’ati ma’muriyati”ga asos solingan hamda 1998-yil Ozarbayjonning Boku shahrida “Turkiy tilli davlatlar parlamentlari assambleyasi” tashkil qilingandi. Turkiy Kengashni tashkil etgan “Naxichevan kelishuvi” 2009-yilda Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston va Qirg‘iziston tomonidan aynan Naxichevanda imzolandi.

2009-yildan boshlab yangilangan TDTning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi 22 moddadan iborat “Naxichevan kelishuvi” bosh huquqiy-me’yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi. Shartnomaning asosiy mazmunida, eng avvalo, turkiy xalqlar o‘rtasidagi tarixiy rishtalar, umumiy til, din, madaniyat va ota-bobolardan meros bo‘lib kelayotgan an’analardan kelib chiqib, har tomonlama hamkorlikka kirishish hamda bu munosabatlarni chuqurlashtirishga qaratilgani ko‘rinib turadi. Mazkur hujjatda, shuningdek, tashkilotning vazifa va maqsadlari, tuzilmasi, hamkorlik turlari, tashkilot tarkibidagi kengash va qo‘mitalar, byudjet, imtiyozlar, xalqaro munosabatlar va nizolarni hal etish masalalari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan [1]. Tashkilotning maqsad va vazifalari “Naxichevan kelishuvi”ning 2-moddasida keltirilgan.

Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Nizomining maqsad va tamoyillariga hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan boshqa barcha prinsiplari va normalariga, jumladan, davlatlarning suveren tengligi, hududiy yaxlitligi va xalqaro miqyosda tan olingan chegaralarining daxlsizligi, shuningdek, xalqaro xavfsizlik va tinchlikni saqlash, yaxshi qo‘shnichilik va do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga sodiq bo‘lgan hukumatlararo tashkilotdir. Turkiy davlatlar tashkiloti tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, keng ko‘lamli hamkorlikni rivojlantirish hamda unga a’zo mamlakatlar o‘rtasida umumiy rivojlanish salohiyatini ochib berishga intilayotgan tashkilotdir. Muayyan mamlakatlar guruhini birlashtirgan tashkilot mintaqaviy hamkorlik borasida

inklyuziv yondashuvlarni qo‘llaydi.

Shunday qilib, ushbu Tashkilot turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi chuqur munosabatlar va birdamlikni rag‘batlantirish orqali Yevroosiyo qit’asida, xususan, Markaziy Osiyo va Kavkazda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi mintaqaviy birlik bo‘lib xizmat qilishni maqsad qilgan.

Markaziy Osiyo mintaqasi Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyoni bog‘lovchi hudud va ayni zamonda ikki katta kuch markaziga yaqin joylashgan. Dunyo global tartiboti o‘zgargani sari Osiyoga munosabat o‘zgarib, intilish ortib bormoqda. Transport koridorlari nuqtayi nazaridan turkiy davlatlar eng ko‘p tranzit hududga ega. Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Turkiya yo‘nalishi eng muhim koridor sifatida bundan keyin bu tranzitning ahamiyati ham oshib boraveradi. Sobiq Ittifoq davrida turkiy davlatlar ajratib qo‘yilgan edi. Mustaqillik sabab madaniy, gumanitar birlashish yuz berishi ortidan bu tashkilot yuzaga keldi. Tashkilotga O‘zbekiston qo‘shilishi juda muhim voqelik bo‘lganini butun dunyo ekspertlari ham ta’kidlashmoqda [2].

Turkiy kengashning 2018-yilda o‘tkazilgan 6-sammitida Vengriya kuzatuvchi a’zo sifatida Tashkilotga qabul qilingan edi. 2019-yil Bokuda bo‘lib o‘tgan 7-sammitda esa turkiy dunyoni bir butun qilgan holda O‘zbekiston Kengashning to‘laqonli a’zosiga aylandi. Bugungi kunda Shimoliy Qibris Turk Respublikasining ham Tashkilot kuzatuvchisi maqomini olishi borasidagi ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar 2019-yilga qadar davom etgan o‘zaro hamkorlik aloqalarining yangi davrini boshlab berdi. Boshlanganda ham shiddatli tarzda o‘sish, har tomonlama aloqalarning mustahkamlanishi, Turkiy dunyoning azaliy birligini qayta tiklanishi (2021-yilgi Istanbul sammitida O‘zbekiston Prezidenti Turkmanistonga Turkiy davlatlar tashkilotining kuzatuvchisi maqomi berilganligini qo‘llab-quvvatladi) sifatida jahon hamjamiyati ko‘z o‘ngida tashkilotning nufuzini oshirdi[3, p.42]. Turkmaniston Xalq maslahati raisi Gurbanguli Berdimuhamedov Turkiy davlatlar tashkilotining 2023-yil martida Anqara shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari sammitida Turkmaniston tez orada Turkiy davlatlar tashkilotiga to‘laqonli a’zo bo‘lishini aytib, tashkilotga a’zo va kuzatuvchi davlatlar rahbarlarini Ashxobodga taklif etishi ahamiyatli voqea sifatida tarixga muxrlandi. “Agar qonunchiligimiz takomillashtirilsa, Turkmaniston turkiy oila qatoriga qo‘shilishi mumkinligiga ishonaman”, – deya ta’kidladi sobiq prezident. Neytralitet sababidan Turkmaniston hech bir tashkilotning rasmiy a’zosi emas va barcha sammitlarning faxriy mehmoni sifatida qatnashadi. Agarda haqiqatdan qonunlarga o‘zgartirish kiritilsa, unda TDTning rasmiy a’zolari soni bittaga ko‘payadi.

Yana bir jiddiy integratsion birlashish masalasi ham kun tartibiga sekin-asta chiqib bormoqda. Tashkilot turkiy tilli mamlakatlarni o‘z atrofida birlashtirishni maqsad qilgan. Biroq pandemiyadan keyingi davrda turkiy bo‘lmagan ammo nisbatan yaqinlik va bog‘liqlikka ega ikki mamlakat – Tojikiston va Mo‘g‘ulistonni Turkiy integratsiyaga kiritish borasida fikrlar yangramoqda. Turkiya Respublikasi Tashqi siyosat instituti direktori Huseyn Bag‘chi: “Tojikiston va Mo‘g‘uliston Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo bo‘lishi kerak. Tashkilotning maydonlarida mamlakatlar iqlim, aholi va boshqa sohalarga doir muammolarni birgalikda hal qilishadi [4]”, – deya shaxsiy fikrlarini Xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha Markaziy Osiyoning 2023-

yil iyulidagi forumida bayon qildi. Boshqa bir ekspertlar guruhi esa Ozarbayjon rahbari Ilhom Aliyevning 2023-yil aprelida Tojikistonga qilgan safarini iqtisodiy va transport loyihalari orqali TDTga jalb qilish uchun muhim qadam sifatida baholashmoqda. Tojikiston fors tilli mamlakat bo‘lgani sababidan Turkiy integratsiyadan chetda qolgan bo‘lsada, MDH, ShHT, KXShT, YeII va Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahatlashuvi orqali o‘z mintaqadoshlari bilan doimiy aloqani davom ettrimoqda. Mo‘g‘uliston esa Shanxay Hamkorlik Tashkiloti kuzatuvchiligi asosida Markaziy Osiyo davlatlari, Ozarbayjon va Turkiya bilan savdo-iqtisodiy, ilmiy-madaniy hamkorlikni davom ettirib keladi. Tojikiston va Mo‘g‘ulistonni qo‘shilishi ortidan TDTning kengayishi tashkilotning imkoniyatlariga ta’sir qilishi va uning xalqaro maydonda pozitsiyasi ham kuchayishiga olib kelish ehtimoli yuqori baholanmoqda [5].

1993-yilda TDTni birlashtirishda bosh bo‘lib turgan tashkilotlardan biri hamda turkiy dunyoda tashkil etilgan ilk hamkorlik tuzilmasi – TURKSOY tashkil etildi. TURKSOY turkiy til oilasiga tegishli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar, Turkiy respublikalar va jamiyatlarni birlashtiradigan xalqaro tashkilot hisoblanadi. “Turkiy madaniyat va san’atni rivojlantirish markazi” nomi ostida 1993-yilning 12-iyul kuni Qozog‘istonning o‘sha davrdagi poytaxti bo‘lgan Olmaota shahrida rasmiy imzolangan hujjat asosida o‘z faoliyatini boshladi. Tashkilotga tamal toshi Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkiya va Turkmaniston madaniyat vazirlari o‘rtasida 1992-yilda Boku hamda Istanbul shaharlarida o‘tkazilgan yig‘ilishlarda o‘zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadiga qaratilgan tashkilot yaratish g‘oyalari asos bo‘ladi.

TURKSOYning asosiy maqsadi – turkiy davlatlar va xalqlar orasidagi do‘stlikni mustahkamlash va o‘zaro hamkorlikni har tomonlama kuchaytirishdir. Bu hamkorliklar madaniy, ilmiy, iqtisodiy va boshqa qator sohalarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Tashkilotda a’zo mamlakatlar Madaniyat vazirliklari tomonidan tayinlangan vakillar ham faoliyat yuritadi. TURKSOYning markaziy xizmat binosi Turkiya boshkenti Anqarada joylashgan. Shu bilan bir qatorda, TURKSOYning boshqa birorta davlat yoki shaharda vakolatxonasi mavjud emas. TURKSOY 2009-yil bugungi nomini oldi va turkiy respublikalarning yangilangan birlashuv tashkiloti – Turkiy Kengashga rasman integratsiya qildi.

TURKSOY tashkil etilgan kundan buyon turkiy xalqlarning birligi va birodarligini mustahkamlash, mushtarak turkiy madaniyatni kelajak avlodlarga benuqson yetkazish, shu bilan birga, dunyoga tanitish yo‘lida faoliyat olib bormoqda. Turkiy dunyo hamda jahon miqyosida madaniyat va san’at olami o‘rtasidagi uzluksiz va doimiy hamkorlik aloqalarini ta’minlovchi TURKSOY tashkil etilganidan buyon a’zo davlatlarning rahbarlari e’tiborida va homiyligi ostida doimiy faoliyatini amalga oshirib kelimoqda.

TDTning rasmiy a’zolari bo‘lgan Markaziy Osiyo Respublikalari, Turkiya va Ozarbayjondan tashqari TURKSOYga Shimoliy Kipr Turk Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi Tatariston, Boshqirdiston, Oltoy, Yakut (Saxa), Tuva va Xakas Respublikasi hamda Moldovaning Gagauziyasi kuzatuvchi maqomida a’zo bo‘lganlar. Biroq 2015-yildagi Turkiya-Rossiyasining diplomatik munosabatlari

sovuqlashishi ortidan Saxa va Tuva jumhuriyatlari TURKSOYni tark etishgan.

Bugungi kunga qadar Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Turkiya, Tatariston (RF) va Boshqirdistonda (RF) 38 ta yig‘ilish o‘tkazilgan va aynan 38-yig‘ilish O‘zbekistonda tashkil qilingan edi [6]. Yilda bir marta Turkiy dunyoning “Madaniyat poytaxti” aynan shunday yig‘ilishlarda aniqlanadi. TURKSOY Muddatli Koordinatori maxsus hujjatni Turk dunyosi “Madaniyat poytaxti” sifatida tanlangan shahar tegishli bo‘lgan davlatning tegishli vazirligiga topshiradi. TURKSOY Doimiy Kengashi yig‘ilishlari Turkiy dunyo Madaniyat va boshqa tegishli vazirlarini birlashtirgan hamkorlikning eng qadimgi an’analaridan biridir.

Turkiy davlatlar tashkiloti, Xalqaro Turkiy Akademiya, Turkiy Parlament Assambleyasi, Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi TURKSOY bilan hamkorlikda faoliyat olib boradigan qardosh tashkilotlardir. TURKSOY, shuningdek, bir xil tamoyil va maqsadlarga ega bo‘lgan ko‘plab universitetlar va nodavlat tashkilotlar, UNESKO, ISESCO kabi xalqaro tashkilotlar bilan ham mustahkam aloqalarni boyitgan holda hamkorlik qilib keladi.

2023-yilda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY tashkil etilganiga 30 yil to‘ldi. Bir insonning tug‘ilib voyaga yetishi va jamiyatga kerakli shaxs bo‘lib yetishishida aynan shuncha davr kerak bo‘ladi. TURKSOY ham bu davrda aynan shunday yetuk bir madaniy tashkilot sifatida e’tirofga erishmoqda. Ushbu sana buy il davomida tashkilotga a’zo mamlakatlarda keng tantana qilindi. Olmaotadan boshlangan bayram Bishkekda davom etib, undan Toshkentga ham yetib keldi. Turkiy dunyoda, jumladan, Toshkentda TURKSOY yubileyiga bag‘ishlangan tadbirlar bo‘lib o‘tdi. Poytaxtda joylashgan “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOYning 30 yillik yubileyiga bag‘ishlangan katta tantanali tadbir va ajoyib chiqishlardan iborat konsert dasturi bo‘lib o‘tdi [7].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning TURKSOY tashkiloti 30 yilligi munosabati bilan O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan madaniyat kunlari ishtirokchilariga atalgan tabrigini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov o‘qib eshittirdi [8].

Ushbu yubiley yil munosabati bilan 2023-yilning 26 - 19-iyun kunlarida Toshkentdagi Xalqaro anjumanlar saroyida TURKSOYning 30 yilligiga bag‘ishlangan “Turkiy madaniyat kunlari” bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda “TURKSOY fotoko‘rgazmasi”, “Turkiy dunyo rasmlari ko‘rgazmasi”, “Turkiy dunyo ustalarining amaliy san’ati ko‘rgazmasi”, “Turkiylar nashrlari ko‘rgazmasi”, “Turkiy dunyo milliy liboslari ko‘rgazmasi” kabi turkiy dunyo madaniyati aks etgan bir qator ko‘rgazmalar ham tashkil etildi [9].

Umumiy konsertdan tashqari Poytaxt shahardagi O‘zbekiston amaliy san’at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida TURKSOY tashkilotining 30 yillik yubileyiga bag‘ishlangan “Turk dunyosi” nomli rassomlar va hunarmandlar ko‘rgazmasi [10], turkiy dunyo xalqlarining milliy oshxonalariga oid gastronomik turlar namoyish tashkil etildi [11]. Ushbu yubiley tadbirlari davomida turkiy tilli davlatlarning nufuzli xalqaro tashkilotlari rahbarlari va O‘zbekiston Respublikasining Madaniyat vazirligi o‘rtasida madaniyat, san’at, noshirlik, media, turizm kabi qator sohalarda hamkorlikni kengaytirishga oid muloqot va uchrashuvlar

bo‘lib o‘tdi, muhim kelishuvlar hamda hamkorlikning yangi darajadagi memorandumlari imzolandi.

Umumiy til va mushtarak qadriyatlar birligi asosida shakllangan Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY doirasida bugungi kunda madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda. Ta’kidlash joizki, turkiy tilli xalqlarning ma’naviy qadriyatlari va tarixiy-madaniy merosini xalqaro darajada saqlash, o‘rganish va ommalashtirishda TURKSOY tashkiloti muhim o‘rin tutadi. Ayni paytda ushbu tuzilma tili, madaniyati, an’analari, tarixi, hayot tarzi mushtarak xalqlar uchun o‘ziga xos mustahkam va ishonchli ma’naviy ko‘prikka aylanib ulgurdi.

TURKSOYning yubileyi bilan bir vaqtda Beruniy tavalludining 1050 yilligi, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligi, G‘ofur G‘ulom tavalludining 120 yilligini turkiy dunyo miqyosida yuqori saviyada o‘tkazish masalalari ham aynan 2023-yilgi dasturlarning muhim tadbirlaridan biri bo‘ldi [12].

2023-yilning dekabrida Toshkent yirik xalqaro anjumanga mezbonlik qildi. “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” nomli ushbu xalqaro konferensiyada turkiy davlatlardan hamda dunyoning taraqqiy topgan mamlakatlaridan o‘nlab ilm-fan daholari, jadidchilik bo‘yicha ilmiy faoliyat yuritayotgan olimlar, jurnalistlar yig‘ilishdi. Ushbu xalqaro anjumanning tashabbuskori O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ishtirokchilarga yo‘llangan tabrigi o‘qib eshittirildi [13]. Prezident yordamchisi Saida Mirziyoyeva va Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyevning nutqlari orqali jadidchilik faoliyatini o‘rganish va uni kun tartibiga olib chiqishdan ko‘zlangan maqsadlarga to‘xtalib o‘tishdi.

Tezlikda globallashib borayotgan dunyoda turli xatar va tahdidlarning oldini olishda, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va ahillikni, yaxshi qo‘shnichilik va hamjihatlikni tobora mustahkamlashda faoliyatining asosini ezgulik, ma’rifat, ma’naviy boylikka yo‘g‘rilganlik, hamkorlik kabi olijanob g‘oyalar tashkil etuvchi TURKSOY tuzilmasining o‘rni va ahamiyati o‘ziga xos tarzda salmoqlidir. Uning platformasida o‘tkazilayotgan ijodiy loyihalar, festivallar, ijodiy tanlovlar, forumlar, yirik anjumanlar ildizlari umumbashariy ezgu g‘oyalardan suv ichgan xalqlarni yagona maqsad sari birlashtirib kelayotir. Olmaota, Anqara, Bishkek, Toshkent, Boku kabi markaziy shaharlarda bo‘lib o‘tayotgan tadbirlar shu jihatlarni yana bir karra o‘zining yorqin ifodasi sifatida namoyon ettirmoqda.

Umumiy tarix, mushtarak til, mushtarak o‘zlik va mushtarak madaniyat kabi to‘rtta asosiy ustun ustiga qurilgan Turkiy davlatlar tashkiloti bu mushtarakliklar chegarasi bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, u a’zo davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiyot, fan, ta’lim, madaniyat, transport, bojxona, sport, turizm va boshqa turli sohalar kabi mavjud ikki tomonlama hamkorlik sohalarini mintaqa manfaati uchun ko‘p tomonlama hamkorlikka tomon kengaytirishga qaratilgan. Shuningdek, Turkiy davlatlar tashkiloti o‘zini a’zo davlatlar doirasida cheklab qo‘ymaydi va o‘z mintaqasida tinchlik hamda barqarorlikni ta’minlash, xususan, transport, bojxona, turizm va hokazo sohalarda qo‘shni davlatlar bilan bajonidil hamkorlik qiladi. Bular asosida esa turli xil hamkorlik memorandumlari bor, ilmiy ishlar esa yaratilmoqda.

Qisqacha aytganda, XXI asrning ikkinchi dekadasi tom ma’noda Turkiy dunyo uchun foydali va ma’lum ma’noda yangi bosqichga ko‘tarilganlik belgisiga aylangan bo‘lsa, uchinchi dekada tashkilotning yuqori darajaga chiqishi hamda jahon hamjamiyatida muqim o‘ringa egaligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turkiy davlatlar tashkiloti qanday tashkilot va u nima uchun kerak? 08.11.2022. https://daryo.uz/2022/11/08/turkiy-davlatlar-tashkiloti-qanday-tashkilot-va-u-nima-uchun-kerak
2. “Turkiy davlatlar tashkiloti ham dunyoning bir qutbiga aylanadi” – ekspert. 05.11.2023. https://kun.uz/uz/news/2023/11/05/turkiy-davlatlar-tashkiloti-ham-dunyoning-bir-qutbiga-aylanadi-ekspert
3. Special Edition of World of Diplomacy Journal of the Ministry of Foreign Affairs of Azerbaijan dedicated to the Turkic Council. Baku – 2021. P. 42.
4. Организация тюркских государств собирается раскинуться на всю Центральную Азию. 17.07.2023. https://titus.kz/?previd=121957
5. Turkiy davlatlar tashkilotiga Tojikiston va Mo‘g‘uliston ham taklif qilinishi mumkin. 18.07.2023. https://kun.uz/uz/news/2023/07/18/turkiy-davlatlar-tashkilotiga-tojikiston-va-moguliston-ham-taklif-qilinishi-mumkin
6. TURKSOY Madaniyat vazirlarining doimiy Kengashi 38-yig‘ilishi O‘zbekistonda tashkil etildi. 18.09.2021. https://www.trtavaz.com.tr/haber/uzb/avrasyadan/turksoy-madaniyat-vazirlarining-doimiy-kengashi-38-yigilishi-ozbekistonda-tas/6144745c01a30a546c309bba
7. Toshkentda TURKSOYning 30 yillik yubileyiga bag‘ishlangan konsert dasturi bo‘lib o‘tdi. 20.06.2023. https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2023/06/16/01234567890-925-2000592
8. Turkiy xalqlarning oltin ko‘prigi. 19.06.2023. https://uza.uz/oz/posts/turkiy-xalqlarning-oltin-koprigi_494524
9. Toshkentda TURKSOYning 30 yilligiga bag‘ishlangan "Turk madaniyati kunlari" bo‘lib o‘tadi. 26.02.2023. https://uzreport.news/society/toshkentda-turksoyning-30-yilligiga-bag-ishlangan-turk-madaniyati-kunlari-bo-lib-o-tadi
10. TURKSOYNING 30 YILLIK YUBILEYIGA BAG‘ISHLANGAN KO‘RGAZMA. 10.06.2023. HTTPS://GOV.UZ/LISTS/VIEW/1932/
11. Turkiy xalqlarning oltin ko‘prigi. 19.06.2023. https://uza.uz/oz/posts/turkiy-xalqlarning-oltin-koprigi_494524
12. TURKSOYning 30 yilligi: Toshkentda turkiy davlatlar san’atkorlari konsert beradi. 10.06.2023. https://www.xabar.uz/uz/mahalliy/turksoyning-30-yilligi-toshkentda-turkiy-davlatlar
13. Prezidentning “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi e’lon qilindi. 11.12.2023. https://daryo.uz/2023/12/11/prezidentning-jadidlar-milliy-ozlik-istiqlol-va-davlatchilik-goyalari-mavzusidagi-xalqaro-konferensiya-ishtirokchilariga-tabrigi-elon-qilindi

MUNDARIJA

So‘zboshi 3

MANBASHUNOSLIK, TIL VA ADABIYOT

J. Özlem Oktay Çerezci. WOMEN ACCORDING TO THE ART WORKS OF UZBEKISTAN GOKTURK PERIOD..... 5

Ismatova Nargiza Adxamovna. XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI BUXORO AMIRLIGIDA VAQF SUBYEKTLARI HOLATI 12

Rahimov Komiljon Rahmatovich. XOJA ORIF REVGARIY VA UNING «ORIFNOMA» ASARI QO‘LYOZMA NUSXALARI HAQIDA 19

Usmonov Ibrohim Sobirovich. HAKIM TERMIZIYNING “AL-FURUQ” KITOBIDA QIYOS – FIQHIY DALILI BAYONI 32

To‘rayev Laziz Abdivali o‘g‘li. “RABI’ AL-ABROR” ASARINING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING MANBALARI..... 38

Saishanhuli W. TRANSLATION AND STUDY OF THE LITERATURE OF ABAY IN CHINESE 50

Abdullaev Botirjon. ABU RAYHON BERUNIYNING “TAFHIM” ASARI NUSXALARINING TOSHKENT VA DUSHANBE FAKSIMIL NASHRLARI HAQIDA 63

Agzamova Muhabbatxon Mirtoxirovna. “AL-KOMIL FIT-TARIX” ASARINING MANBAVIY ASOSLARI 72

Axmatov Amonkeldi. BUXORO ADABIY MUHIITINI O‘RGANISh MANBALARI 76

Baqoyev Umidjon Shuhrat o‘g‘li. MUHAMMAD TOLIBNING “MATLAB UT-TOLIBIN” ASARI ASHTARXONIYLAR VA BOBURIYLAR SULOLASI DIPLOMATIK MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA 80

Burgutxonov Saidumarxon. IBN HAZM ANDALUSIYNING “AL-FISOL” ASARIDA ISLOMDAGI YO‘NALISH VA FIRQALARNING YORITILISHIDAGI O‘ZIGA XOSLIKLAR 84

Diniqulov Abror Gulboy o‘g‘li. SHART MAYLIDAGI ARAB MAQOLLARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH USULLARI 89

Jumaniyazov Mansur Davlatbayevich. ZIYOVUDDIN MAKKIY XORAZMIYNING «KIFAYATU-N-NAHV FI ILMI-L-E’RĀB» ASARINING TARKIBI 93

Ismoilov Mas’udxon Maxdievich. XOJA MUHAMMAD PORSONING “TAHQIQOT” ASARIDA KALOM VA TASAVVUFNING NAZARIY MASALALARI UYG‘UNLIGI 108

Mirzayeva Maftuna Murodillo qizi. XVI-XVII ASRLARDAGI HUKM HUJJATLARINING STRUKTURAVIY JIHATLARI 114

Murodova Risolat Davron qizi. MUZEYLARDA AMALIY SAN’AT BUYUMLARINING KONSERVATSIYA VA RESTAVRATSIYA ASPEKTLARI 119

Nasirillayeva Nodirabegim Furqat qizi. BIBLIOGRAF OLIM ABDULLA NOSIROV VA UNING “BILKAT” ASARI HAQIDA 125
Oripov Davronbek. “O‘G‘UZNOMA“DAGI OYQOG‘ON OBRAZI VA UNING “KITABI DADAM QO‘RQUD”DAGI OBRAZLARGA TA’SIRI 129
Ravshanov Alijon. ZAMONAVIY MOLIYAVIY MASALALARGA BAG‘IShLANGAN FIQHIY ASARLAR TAHLILI 134
Samsakova Husniyaxon Xalxodjayeva. BOBOXONOVLAR SHAXSIY KUTUBXONASIDAGI QO‘LYOZMALARNING DASTLABKI TAHLILI 142
Sirojiddinova Maftuna Baxodirovna. ARABSHOHIYLAR SAROY DEVONIGA TEGISHLI QONUNChILIK AKTLARI (dastlabki tahlil natijalari) 147
Sulaymonova Hulkar Mo‘minjonovna. “AR-RASAIL” ASARINING GERMANIYA FONDLARIDA SAQLANAYATGAN QO‘LYOZMALARI XUSUSIDA 153
Umaraliyev Sherzodjon Abdulaxat o‘g‘li. SIROJUDDIN O‘SHIY “FATOVOI SIROJIYA” ASARIGA MUROJAAT ETGAN HANAFIY MAZHABI MANBALARI 159

TARIX VA TARIXSHUNOSLIK MASALALRI

Hulstine Matthew. CONVERGING NARRATIVES: THE SIGNIFICANCE OF ‘ALIMQUL’S FALL ..165
Azimov Xurshid. QADIMGI XITOY MANBALARIDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING JOYLASHUV “XARITASI” 171
Ahmedova Dilafruz. BUXORO AMIRLIGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING “INSHO” MAJMUALARIDA YORITILISHI 175
Idiyev Akbar Avaz o‘g‘li. SHAYBONIYLAR DAVRI SIYOSIY JARAYONLARIDA ETNIK BIRLIKLARNING ARALASHUVIGA DOIR 180
Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o‘g‘li. MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARINI FORS KO‘RFAZI ARAB DAVLATLARI BILAN ALOQALARINING QAYTA BOSHLANISHI TARIXIGA NAZAR 185
Karimov Sherzod Shavkat o‘g‘li. TEMURIYLAR DAVLAT BOSHQARUVIDA XOJA MAJDUDDIN MUHAMMADNING TUTGAN O‘RNI 189
Karimova Miyassar Jamoldinovna. O‘RTA OSIYOLIK SAVDOGARLARNING SHARQ MAMLAKATLARI BILAN SAVDO ALOQALARI 196
Ostonov Jahongir Davlatovich. FRANSUZ SHARQSHUNOSI POL PELYONING ILMIY FAOLIYATIGA NAZAR 205
Pilipchuk Yaroslav Valentinovich. ГОСУДАРСТВЕННОСТЬ И ЭТНИЧНОСТЬ УСУНЕЙ 210
Tojiyev Doston Beknazar o‘g‘li. TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDAGI HAMKORLIK: ILMIY-MADANIY HAMDA SIYOSIY SOHALAR MISOLIDA 216
Fayzullayev Farrux Eshqabulovich. UBAYDULLAXONNING MUHAMMAD SHAYBONIYXON YURISHLARIDA ISHTIROKI 223
Xayrullayeva Iroda Faxriddinovna. HIND XOTIN-QIZLAR TA’LIMI EVOLYUSIYASI (JAMMU VA KASHMIR MISOLIDA) 230

Xakimova Nigora. ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA «MAHOSIN» ASARI O‘RGANILISHINING TAHLILI 237
Xusnutdinov Flipp Romanovich. МЕЖДУ ПОЭЗИЕЙ И ПОЛИТИКОЙ: ПОЧЕМУ ЛИДЕР ТУРКЕСТАНСКОЙ ДИАСПОРЫ В САУДОВСКОЙ АРАВИИ УПОДОБЛЯЛ СОВЕТСКОЕ ГОСУДАРСТВО СОВЕ? 242
Ermatova Mushtariy Abdulla qizi. QO‘QON XONLIGINI O‘RGANISHGA OID YANGICHA QARASH VA YONDASHUVLAR 248
Yakubov Qahramon Karimdjanovich. XIVA XONLIGI MADRASALARI TARIXINING ZAMONAVIY TARIXSHUNOSLIKDA YORITILISHI: YANGICHA YO‘NALISH VA YONDASHUVLAR 254
Qorayev Sherxon Po‘latxonovich. MANBALARDA BUXORO AMIRI ABDULAHADXON IJODI VA ADABIY KECHALARI TARIXI 262
G‘oyibnazarova Mahmuda O‘ktamjon qizi. “OYINA” JURNALIDA TURKISTONDAGI IQTISODIY MASALALARNING YORITILISHI 267
G‘ofurov Jasur Isaqovich. USTRUSHONA QISHLOQ MAKONLARINING ME’MORIY – QURILISH LOYIHASI VA USULLARI XUSUSIDA (V-VIII ASRLAR) 272
Abdupattaev Mo‘min Mirzo Murodjon o‘g‘li. MUHAMMAD IBN AHMAD XORAZMIYNING DINSHUNOSLIKKA OID QARASHLARI..... 278

«SHARQSHUNOSLIK SOHALARINI TADQIQ ETISHNING DOLZARB MASALALARI» MAVZUSIDA YOSH SHARQSHUNOSLARNING AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV NOMIDAGI XIX RESPUBLIKA ILMIY–AMALIY KONFERENSIYASI

TO‘PLAMI

Muharrir
Bunyod Pattayev

Badiiy muharrir
Murodillo Rahmonov

Musahhih
Jasur Qutbiddinov

Sahifalovchi
Doniyor Murodov

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 3-maydagi 5-sonli majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

Nashriyot litsenziyasi № 7538, 25.05.2022-y.
20.05.2023-yilda bosishga ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$. “Cambria” garniturasi.
Shartli bosma tabog‘i 20. Adadi: nusxa.
Buyurtma raqami №: 14-24.
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
“Fan” nashriyoti davlat korxonasida
nashrga tayyorlandi va chop etildi.
100047, Toshkent sh., Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 70-uy. Tel.:
+99899 7917555, +99871 2622154